

# **Kelajagi porloq yoshlar uchun to'g'ri yo'l ko'rsatish – ezgu vazifa**

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov Kino, televide niye va radio san'ati hamda Kutubxona-axborot faoliyati fakultetlarining birinchi bosqich talabalari bilan tanishuv uchrashuvi o'tkazdi.



Ochiq muloqot tarzida o'tgan davra suhbatida oliygoh faoliyati, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ta'lim muassasining ichki tartib-qoidalari to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.



*«Bizning oliygoh o'z maqsadi, yo'nalishlari va vazifalari bo'yicha Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Institutimizni tanlab adashmagansiz. Chunki o'zingiz istagan soha vakili bo'lishni istab kelgansiz. Bu yerda shunchaki o'qish kerak*

*emas, balki zo'rlarning zo'ri bo'lish uchun harakat qilish darkor. Institutimizda ko'plab el suygan san'atkorlar tahsil olgan. O'ylaymanki, yillar o'tgach, ular safida sizlarning ismingiz ham tilga olinadi. Sizdan faqat bilim olish va intilish talab etiladi. Biz bu borada ko'mak berishga tayyormiz», **dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.***



Rahbariyat tomonidan bugungi kunda o'zbek filmlari va seriallaridagi muammolar tanqid qilinib, bunga Kino, televide niye va radio san'ati yechim topa olishiga ishonishi bildirdi.

*«Bugungi film va seriallar maishiy mavzularga o'ralashib qolganidan barchangiz xabardorsiz. Muammolarni ayta bilish ham darkor. Bu borada chuqur bilimga kinotanqidchilarni yetishishtirishga harakat qilamiz. Film deymizmi, serialmi, uning yaralish jarayonida ishtirok etadigan barcha ijodkorlar bizning oliygohdan yetishib chiqadi. Agar hozirda chuqur bilim egasi bo'lib, birdamlikka erishsangiz, kelgusida yana elga manzur bo'ladigan asarlar yaratilishiga shak-shubha yo'q», **deya qo'shimcha qildi rektor v.b.***



Shuningdek, Eldor Shermanov yetuk soha vakili bo'lish uchun kitob mutolaasi nihoyatda ulkan ahamiyat kasb etishini aytib o'tdi. Shu bois, oliygohda har oy kitobxonlik tanlovlari o'tkazilishi ma'lum qilindi.



*«Barchamiz oynai jahonda havas bilan tomosha qiladigan «Yosh kitobxon» tanlovi g'oliblari Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti talabalari bo'lishi lozim. Sizlarning asosiy vazifangiz shu. G'oliblar qatoridan o'rinn olsangiz, nafaqat oilangiz, balki biz ham o'zimizda faxr tuyg'usini his qilamiz», dedi Eldor Shermanov.*



